

Xudayberganova R.T.
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti,
“Geografiya” kafedrası dotsenti, Ph.D.
O‘zbekiston

**QUYI AMUDARYO IQTISODIY RAYONI TABIIY
RESURLARIDAN OQILONA FOYDALANISH VA ATROF-MUHITNI
MUHOFAZA QILISH**

Annotatsiya. Ushbu maqolada Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish, mintaqa sanoat tarmoqlar tarkibi va rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan hamda atrof-muhitni muhofaza qilish jihatlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Iqtisodiy rayon, tabiiy resurs, xom ashyo, atrof-muhit, agrosanoat, klaster.

ХудайбергANOVA P.T.
Ургенчский государственный университет имени Абу Райхана Беруни,
Доцент кафедры “География”, Ph.D.
Узбекистан

**РАЦИОНАЛЬНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПРИРОДНЫХ РЕСУРСОВ И
ОХРАНА ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ В НИЖНЕАМУДАРЬИНСКОМ
ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЙОНЕ**

Аннотация. В статье анализируются рациональное использование природных ресурсов Нижнеамударьинского экономического района, особенности структуры и развития отраслей промышленности региона, рассматриваются аспекты охраны окружающей среды.

Ключевые слова: Экономический район, природные ресурсы, сырье, окружающая среда, агропромышленный комплекс, кластер.

Khudayberganova R.T.
Urgench State University named after Abu Rayhan Biruni,
Associate Professor of the Department of Geography, Ph.D.
Uzbekistan

**RATIONAL USE OF NATURAL RESOURCES AND ENVIRONMENTAL
PROTECTION IN THE LOWER AMUDARYA ECONOMIC REGION**

Annotation. This article analyzes the rational use of natural resources of the Lower Amu Darya economic region, the specific features of the structure and

development of the region's industrial sectors, and considers aspects of environmental protection.

Key words: Economic region, natural resource, raw material, environment, agroindustry, cluster.

Quyí Amudaryo iqtisodiy rayonida sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish uchun imkoniyat va qulayliklar mavjud. Bularga mintaqaning tabiiy sharoiti va mineral resurslari, mehnat resurslarining ko‘pligi, mintaqaning iqtisodiy geografik o‘rni, paxta va boshqa qishloq xo‘jalik xom ashyolarining mavjudligini kiritishimiz mumkin.

Ushbu hududda sanoatni rivojlantirish uchun, eng avvalo, yuqoridagi imkoniyatlardan samarali foydalanish zarur. Shu bilan birga, iqtisodiy rayonda mineral xom ashyo va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sanoati, kam suv talab, atrof-muhitni kam zararlovchi, ayni paytda, mehnat talab sohalarni rivojlantirish ustuvor strategik yo‘nalishlar sifatida qaralmog‘i lozim.

Quyí Amudaryo iqtisodiy rayonining ekologik vaziyati og‘ir va mamlakatimiz markaziy rayonlaridan chekkada, ancha uzoq masofada joylashgan mintaqaga hisoblanadi. Xususan, Orol dengizining tobora qurib borishi tufayli u bilan bog‘liq boshqa muammolar, jumladan, yerlarning meliorativ holati buzilishi oqibatida ularning qishloq xo‘jalik aylanmasidan chiqishi va, xususan, sotsial muammolar jiddiy tus oldi. Aholi kasallanishi, bolalar o‘limi ko‘rsatkichlari, tashqi migratsiya kuchaydi, aholi bandligi uning yashash sharoitini yaxshilash muhim vazifa bo‘lib qoldi.

Respublikamizda qabul qilinayotgan qarorlar va davlat dasturlarida mintalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Quyí Amudaryo mintaqasida sanoatni rivojlantirishga qaratilgan 2017-yil 18-yanvardagi “2017–2021-yillarda Orolbo‘yi mintaqasini rivojlantirish davlat dasturi to‘g‘risida”gi PQ-2731-son, 2018-yil 12-yanvarda, “Tebinbuloq koni negizida kon-metallurgiya kompleksi qurilishi” investitsiya loyihasini amalga oshirish borasidagi ishlarni tashkillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-3743-son, undan oldingi davrda amalga oshirilgan 2012-yil 22-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1856-sonli “2013 – 2015-yillarda Xorazm viloyati sanoati salohiyatini

rivojlantirish dasturi to‘g‘risida”gi qarorlarni keltirish mumkin. Mazkur dasturlarni ishlab chiqishdan asosiy maqsad, istiqbolda mintaqa sanoat ishlab chiqarishni rivojlantirish, hududiy tarkibini takomillashtirishda mahalliy mineral xom ashyo va mehnat resurslaridan har tomonlama foydalanishdir.

Ushbu qarorlar va dasturlarni amalga oshirish jarayonida tahlillar asosida qo‘lga kiritilgan qator xulosalardan kelib chiqib mintaqa sanoatini istiqboldagi ustuvor rivojlantirish yo‘nalishlarini belgilashda tarmoq va tarmoqlaro hududiy klasterini shakllantirish maqsadga muvofiq. Bunda dastlabki bosqichda:

- shakllantirilayotgan agrasanoat klasterlarini to‘liq komponentlarini yaratish;
- ichki va tashqi bozorga yo‘naltirilgan yoqilg‘i-energetika, gaz-kimyo, tog‘- kimyo klasterini rivojlantirish;
- metallurgiya-mashinasozlik HICHMsini shakllantirish va kelgusida hududiy klaster yoki uning komponenti darajasiga ko‘tarish;
- qurilish klasterini shakllantirish lozim.

Mintaqa tabiiy sharoiti paxta, anor, anjir kabi qator qishloq xo‘jaligi ekinlar yetishtirish imkonini beradi. Bunda, yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek mintaqa yengil sanoatini rivojlantirish uchun paxtachilik – to‘qimachilik klasterlari joriy etilmoqda. Chunki respublikaning boshqa joylarida bo‘lgani kabi paxta plantatsiya usulida yetishtiriladigan asosiy ekin sanaladi. Yiliga qarab sug‘orib ekiladigan maydonlarning 35-45 foizida ushbu ekin turi yetishtiriladi [7, 9, 10, 11].

O‘tgan asr 90-yillarida ro‘y bergan og‘ir iqtisodiy-siyosiy inqiroz natijasida sobiq Ittifoq respublikalari o‘rtasidagi gorizontal aloqalarning uzilishi O‘zbekistonda g‘alla mustaqilligi siyosatini uritilishiga olib keldi. Respublikada, jumladan viloyatda, g‘alla maydonlari asta – sekin oshirilish barobarida yem-xashak ekinlari maydonlari qisqartirilib borildi. Ushbu holat paxtachilikda almashlab ekish mexanizmini o‘zgarishi bois jamoa xo‘jaliklardagi chorva komplekslarining asta – sekin barham topib chorvaning asosan aholi qo‘lida to‘planishiga, yirik bo‘rdoqichilik majmualari, go‘sht va sut kombinatlarining inqirozga uchrashiga sabab bo‘ldi [3].

Yuqoridagi holat respublikada shu jumladan mintaqada yirik naslchilik va boʻrdoqichilik, parrandachilik majmualari qayta tiklashni talab etdi. Bu esa yem-xashak bazasini, paxta bilan almashlab ekiladigan yem-xashak ekin turlari maydonlarining kengaytirilishi va u oʻz navbatida paxtachilikka ham oʻz ijobiy taʼsirini koʻrsatdi.

Mintaqada barcha paxta tozalash korxonalari joylashgan tuman markazlarida toʻqimachilik korxonalarini tashkil etish va bir nechta tumanni biriktirgan holda hozirgiga qaraganda yirikroq klasterlarni tashkil etish, har bir paxtachilik-toʻqimachilik klasterining oʻzining boʻgʻinlarini yaratgan holda oʻzaro raqobatlashuvchi sogʻlom tizimni shakllantirish lozim. Chunki, toʻqimachilik sanoatida boshqa isteʼmol mahsulotlari ishlab chiqaruvchi tarmoqlardagi kabi davlat tomonidan maʼlum darajada turlicha himoyalaniishi hamma vaqt ham iqtisodiy jihatdan samara berayotgani yoʻq [2, 5].

Umuman olganda mintaqada 150-160 ming tonna paxta tolasiga ishlov beruvchi 30 dan ziyod (har biri 4-5 ming tonna paxta tolasini qayta ishlaydigan) toʻqimachilik kompleksini – klasterini barpo etish imkoniyatlari mavjud. Mintaqada tayyorlanayotgan boshqa yengil sanoat xom ashyosi asosida yirik ikkita ipak gazlama kombinati, kamida ikkita poyabzal sanoati va ikkita yirik gilam toʻqimachilik kombinatini barpo etish yoki mavjudlari quvvatlarini oshirish (masalan, Xiva gilami HJni) imkoniyati mavjud. Albatta bu amaliyot maʼlum davrni oʻz ichiga oladi va toʻqimachilik klasterlarini yaratishning hozirgi holatini, yaʼni 2017 – 2021-yillar oraligʻini birinchi bosqichi deb qarash, 2021 – 2025-yillarda paxta tolasiga ishlov berishni 70-75 foizga yetkazish, 2030-yilgacha barcha toʻqimachilik, charm-galantereya, poyabzal xom ashyosiga ishlov berishni 100 foizga yetkazish lozim. Mintaqa sanoatini yangi darajaga koʻtarish bevosita Tebinbuloq kon-metallurgiya kompleksi qurilishi bilan bogʻliq. Har yili 1 mln. tonna poʻlat ishlab chiqarish moʻljallangan kombinatning ishga tushirilishi mintaqada yirik mashinasozlik majmuyini ishga tushirish uchun asos boʻladi.

Zamonaviy texnologiyalar asosida oʻnlab turdagi poʻlat prokat turlarini mahalliyashtirishi Xorazm viloyatida avtomobilsozlik klasterini shakllantirish,

Qoraqalpog‘istonning Qorator tog‘-kon rayoni, quvvati oshirilishi rejalashtirilayotgan Taxiotosh IES (po‘lat elektr energiya yordamida eritiladi, 1 mln. tonna po‘lat va uning qotishmalarini ishlab chiqarish uchun kamida 8-10 mlrd. kVt. elektr energiya zarur bo‘ladi) asosida Qorator – Beruniy – Taxiotosh sanoat tugunini shakllantirish va temir yo‘l arteriyasi bo‘ylab mashinasozlik nuqtalarini shakllantirish mumkin.

Kombinat nafaqat mintaqa balki butun respublika mashinasozlini, jumladan, vagonsozlik, avtomobilsozlik, kimyo, neft-gaz va qurilish tarmoqlari sanoat korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlarini yanada kengaytirish asosida respublika eksport salohiyatini oshirish va importni qisqartirish maqsadida tashkil etilmoqda. Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi mavjud neft va gaz konlari asosida yirik qo‘shma korxonalar barpo etilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston va Janubiy Koreya o‘rtasida Orol dengizi yaqinida Surgil gaz koni asosida qiymati 4 mlrd. AQSh dollariga teng Ustyurt gaz – kimyo majmuasi bunga misol bo‘la oladi. Surgil gaz konining zaxirasi 120 mlrd. kubometr bo‘lib majmuaning qayta ishlash quvvati 3,7 mlrd. kub metrni tashkil etadi. Mintaqada Ustyurt va Orolbo‘yi investbloklarida xorijiy hamkorlar bilan, Xorazm viloyatida “O‘zbekneftgaz” MXK kiruvchi tashkilotlar tomonidan gaz va neft konlarini qidiruv ishlari amalga oshirilmoqda. Bu ishlar natijasida mintaqada gaz, gaz kondensati va neft faktsiyalari qazib olish hajmi ortib bormoqda. Bu esa o‘z navbatida iqtisodiy rayonda elektr-energetika, gaz-neft kimyo tarmoqlarini rivojlantirish imkoniyatini beradi.

Ma’lumki, O‘zbekiston mintaqalarida aholisining aksariyat qismi qishloq joylarda iste’qomat qiladi. Qishloqda sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishi aholi yashash sharoitini yaxshilash, bandlik muammosini hal etishda muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 26-yanvar, “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” davlat dasturi to‘g‘risida”gi PQ-1046-sonli, 2018-yil 27-iyundagi “Obod mahalla” dasturining asosiy parametrlarini tasdiqlash va ularning ijrosini ta’minlash masalalari to‘g‘risida”, PQ-3812-sonli qarorlari asosida

qishloq joylarni obodonlashtirish, iqtisodiy-ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilmoqda.

Joylarda sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirilishi albatta urbanizatsiya jarayonlarini rivojlanishiga olib keladi. Shu bois, aholi nisbatan tarqoqroq joylashgan Qoraqalpog‘iston Respublikasida yangi o‘sish qutblarini vujudga kelishi faqat shahar joylari bilan bog‘liq bo‘lmaydi. Hududda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda albatta aholi manzilgohlari to‘ri tuzilishi, uning eng qulay joylarida, shu jumladan qishloq joylarida sanoat o‘sish qutblarini shakllantirish katta ahamiyat kasb etadi.

Mintaqa shahar va tumanlarida sanoat korxonalari rivojlanishi va joylanishining istiqbollarini aniqlashda sanoat ishlab chiqarishini hududiy tashkil etishga ta’sir qiluvchi omillarning tahlili muhim ahamiyatga ega. Ushbu omillarga iqtisodiy geografik o‘rin, xom ashyo, mehnat resurslari, transport infratuzilmasi, qurilish bazasi, elektr energiya bazasi, ijtimoiy infratuzilma, investitsiya muhiti, ekologik va boshqa omillar kiritildi. Masalan, Qoraqalpog‘iston markazi – Nukus shahri va uning aglomeratsiyasini uch tomondan bog‘lab turuvchi Qo‘ng‘irot, Chimboy, To‘rtko‘l yoki Beruniyni o‘sish markazlari sifatida rivojlantirish. Miskin – Nukus, Nukus – Chimboy, Nukus – Qo‘ng‘irot temir yo‘li va ularning ta’sir zonasida o‘ziga xos “iqtisodiy yo‘laklarni” barpo etish talab etiladi.

Xorazm hududining qiyofasi ancha ixcham (kompakt) bo‘lganligi sababli, bu yerda o‘sish qutb va markazlarini aniqlash qiyinroq. Balkim, bunday vazifani Gurlan, Shovot, Xiva, Pitnak shahar va shaharchalari bajarishlari mumkin. Shu bilan birga, viloyat markazi – Urganch shahrining ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini yanada yuksaltirish ham ahamiyatdan holi emas.

Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni iqtisodiyotini mustahkamlashda, periferiya hamda respublika markaziy hududlaridan katta masofadagi cho‘l hududlari bilan ajralib turishini inobatga olib yirik elektr - energetika bazasini shakllantirish, qurilish materiallari hamda iste’mol mahsulotlari (to‘qimachilik-tikuvchilik, oziq-ovqat) ishlab chiqarish majmualarini rivojlantirish zarur. Jumladan, Bo‘zatov, Shumanay, Taxtako‘pir, Qorao‘zak, Nukus, Kegeyli, Xiva, Hazorasp, Yangiariq,

Yangibozor, Gurlan tumanlari sanoati nihoyatda sust rivojlangan. Ushbu tumanlarda yuqorida tavsiya etilgan tarmoqlardan tashqari dastlab yengil, oziq-ovqat, so'ngra ommaviy mashinasozlik tarmoqlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qurbonov Sh.B., Fedorko V.N. O'zbekiston geografiyasi (II qism. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi). – T.: Yangi Chirchiq prints, 2024. – 384 b.
2. Ruzmetov D.R. Periodic features of territorial organizing of industry production strength // Минтақада замонавий фан, таълим ва тарбиянинг долзарб муаммолари, электрон журнал. – Урганч, 2017. – Б. 45-50.
3. Ro'zmetov D., Matchanov M., Qalandarov U. Xorazm viloyati qishloq xo'jaligi geografiyasi. – Urganch, Universitet, 2017. – 164 b.
4. Рафиқов А.А. Геоэкологик муаммолар. – Т.: Фан, 1996. – 110 б.
5. Рўзметов Д. Р. Ўзбекистон тўқимачилик саноатининг ривожланиши ва ҳудудий таркибини такомиллаштириш муаммолари. География фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Т.: 2009. – 26 б.
6. Солиев А., Қаршибоева Л. Саноат ишлаб чиқаришнинг минтақавий муаммолари (Сирдарё вилояти мисолида). – Гулистон: 2001. – 98 б.
7. Солиев А.С. Ўзбекистон географияси. – Т.: Ўзбекистон, 2014. – 403 б.
8. Умаров Е.Қ. Қарақалпақстанда санаат комплексин раўажландырыўдын баслы бағдарлары. – Нукус: Қарақалпақстан, 2011. – 49 б.
9. Қурбонниёзов Р. Хоразм географияси. – Урганч: Хоразм, 1997. - 115 б.
10. Қурбонниёзов Р. Ўразметов Р. Хоразм вилояти агросаноат комплекси тармоқлари жойлашиши ва ривожланиши. – Урганч: Хоразм, 2002. – 113 б.
11. Қурбонов Ш. Кичик ҳудудлар ижтимоий-иқтисодий географияси (Монография). – Т.: Mumtoz so'z, 2013. – 162 б.
12. Ғуломов П.Н, Ўзбекистонда табиатдан фойдаланишнинг географик асослари. – Т.: Университет, 1990.